

Begmatova Nodira Xakimovna
Qarshi davlat universiteti
“Algoritmlar va dasturlash texnologiyalari” kafedrasida dotsenti,
Pedagogika fanlari nomzodi.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ELEKTRON DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinflarda elektron didaktik vositalardan foydalanish ahamiyati va ko‘nikmalari haqida gap borgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, sinf, elektron, didaktika, vosita.

Begmatova Nodira Khakimovna
Karshi State University
Associate Professor of the Department of "Algorithms and Programming
Technologies",
Candidate of Pedagogical Sciences.

USE OF ELECTRONIC DIDACTIC TOOLS IN PRIMARY CLASSES

Abstract: the article talks about the importance and skills of using electronic didactic tools in primary classes.

Key words: primary education, class, electronic, didactics, tool.

Respublikamizda ta‘lim tizimida yuqori samara berayotgan axborot va pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va amalda qo‘llash jadal sur‘atlar bilan amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasida “Ta‘lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va o‘quv

dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish", 46-moddasida esa pedagog xodimlarning majburiyatlari sifatida "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi"¹, -lozimligi ta'kidlangan .


2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi Ijtimoiy sohani rivojlantirish yo'nalishining "Ta'lim va fan sohalarini rivojlantirish" bandida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyat-larini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish" vazifalari belgilangan².

XXI asr-axborot texnologiyalari asri bo'lgani uchun yosh avlodning kompyuter savodxonligini boshlang'ich sinfdan boshlab shakllantira borish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim jarayoniga multimedia texnologiyasini tadbiiq etish, jumladan, elektron didaktik vositalardan foydalanish esa darsning sifat va samaradorligini oshiradi hamda bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib hisoblanadi.

Multimedaning shakllanish tarixi, mazmuni va texnologiyasi ilmiy-uslubiy adabiyotlarda bayon etilgan. Multimedia texnologiyasi ko'p ta'rifli texnologiyalar sirasiga kiradi. Quyida shulardan birini keltiramiz: multimedia – tovush, video, grafika, matn, animatsiyalar yordamida insonning kompyuter bilan muloqotini ta'minlovchi dasturiy va apparat vositalar majmuasi hisoblanadi. Multimedia texnologiyasining tavsifi 1-rasmda keltirilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020 yil 23 sentyabr, O'RQ-637-son <https://lex.uz/docs/5013007>

² O'zbekiston Respublikasi yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'g'risida. – T.: Adolat, 2017. -111 b.



1-rasm. Multimedia texnologiyasining tavsifi

Multimedia texnologiyasining ta'lim sohasidagi tatbig'i kompyuter texnologiyasi asosida amalga oshiriladi. Jumladan, multimediali didaktik vositalarni yaratish va ularni namoyish etish kompyuter yordamida bajariladi.

Elektron darslik va adabiyotlar kompyuter texnologiyasiga asoslangan sababli o'qtuvchilar va o'quvchilarning kompyuter savodxonligi shakllangan bo'lishi kerak.

Mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim jarayonida kompyuterdan foydalanish borasida ayrim tajribalar mavjud bo'lib, kompyuter savodxonligini tarkib toptirishga qaratilgan ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda birinchi sinfdan boshlab bolalarga kompyuter savodxoligidan dars beriladi. Lekin kichik maktab yoshidagi o'quvchini informatika o'quv predmetiga moslashtirish, bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini nazarda tutish kabi masalalar hal etilishi lozim.

O`quvchining obrazli tafakkur yuritish xususiyati kompyuter kompyuter yordamida o`quv materiallarining sxemalar, rasmlar, jadvallar va diagrammalar shaklida intensiv tarzda o`zlashtirishga yordam beradi.


Kompyuter savodxolik o`quvchida undan foydalanishga oid zarur bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirishni taqazo etadi. Bular kompyuterni texnik qurilma sifatida anglash bilan bog`liq bilimlar, xususan kompyuterning tarkibiy qismlari, monitor, printer, klaviatura, "sichqoncha", ularning bajaradigan vazifalari haqida tushunchaga ega bo`lishini nazarda tutadi. Ularni qo`llash borasida boshlang`ich ko`nikmalar: Power Point dasturida turli geometrik shakllar (to`rtburchak, uchburchak, doira, to`g`ri chiziqlar) yasash, ertak qahramonlarini chizish va bo`yash, 1 dan 100 gacha bo`lgan sonlarni yozish, birlik hamda o`nlik sonlar ustida amallar bajarish, multimedia dasturlaridan foydalanishni bilish ko`nikmalariga ega bo`lishdir.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun ham kompyuter texnologiyasidan foydalanishning imkoniyatlari mavjud.

Boshlang`ich sinflar uchun ayrim mashqlarni elektron shaklga o`tkazish bo`yicha namunalar keltiramiz, bunda multimediaviy kompyuter texnologiyasi asosida multimediaviy slayd tayyorlash lozim.

Quyida Power Point dasturi asosida tayyorlangan slaydlardan namunalar keltiramiz.

1 – slayd. (2 va 3-rasm) “ 10 sonini hosil qilish” mashqini bajarishga bag`ishlangan bo`lib, slaydning birinchi qismida dastlabki topshiriq, ikkinchi qismida topshiriq bajarilgan holat aks ettiriladi.




10 sonini hosil qiling!



2-rasm

10 sonini hosil qiling!



3 - rasm

Slaydga berilgan multimediyaviy effekt: slayd namoyishga qo'yilgach monitor ekranidagi 2 - rasmdagi bo'sh kataklarga birin – ketin 10 sonini hosil qilishga oid sonlar harakatlanib joylashaveradi.

Slayddagi bezaklar: Slayd ta'sirchan bo'lishi uchun slayda turli tasviriy ma'lumotlar berilgan.


2 – Slayd “100 sonini hosil qilish”ga qaratilgan. Rasmda bo'sh kataklar berilgan. Topshiriq: bo'sh kataklarni mos sonlar bilan to'ldirish (4 – rasm).

Slaydga berilgan multimediyaviy effekt: slayd namoyishga qo'yilgach monitor ekranida rasmdagi bo'sh kataklarga sonlar harakatlanib kelib joylashaveradi.

Classroom Objects



Misolni yeching!!!




4-rasm

Slaydga berilgan multimediamiy effekt: slayd namoyishga qo'yilgach monitor ekraniga sonlar harakatlanib joylashaveradi.

Slayddagi bezaklar: Monitor, soat, qaychi, kitob, matematik amallar.

Misolni yeching!



5- rasm

3 – slayd. Bir sonni ikkinchi songa ko'paytirish amali. Bunda kompyuterning monitori ekraniga chiqarilgan mashqdagi bo'sh kataklar to'ldirilishi kerak. (6-rasm)

Slaydga berilgan multimediamiy effekt: slayd namoyishga qo'yilgach monitor ekranidagi 6- rasmdagi bo'sh kataklarga sonlar harakatlanib kelib joylashaveradi.

Slayddagi bezaklar: Tenglik, qo`shish, ko`paytirish va bo`lish belgilari



6-rasm

Agar maktab kompyuter sinfida elektron doska mavjud bo`lsa yuqorida ta`kidlangan barcha multimediyaviy slaydlarni ushbu elektron doskada namoyish etiladi. Bu holda sinfdagi barcha o`quvchilar bir vaqtning o`zida mashqlarning tahliliga va yechilishiga qatnashadilar.

Demak, ta`lim tizimida keng islohotlar amalga oshirgan holda ta`lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini olib kirish, ta`limni kompyuterlashtirish muammolarini hal qilish, uzlkusiz ta`lim tizimining turlarida, jumladan, boshlang`ch ta`limda yangi innovatsion texnologiyalarni, jumladan multimedia texnologiyasini tatbiq etish muxim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O`zbekiston Respublikasi "Ta'lim to`g`risida"gi Qonuni 2020 yil 23 sentyabr, O`RQ-637-son <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O`zbekiston Respublikasi yanada rivojlantirish bo`yicha xarakteristik strategiyasi to`g`risida. – T.: Adolat, 2017. -111 b.
3. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta`lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o`quv-uslubiy qo`llanma). – Qarshi: Nasaf, 2011. - 257 b.

4. Begmatova N.X. Multimedia: atama, ta'rif, mazmun va texnologiya // Fizika-matematika va informatika. – T.: - № 2. 2010. – B. 39-45.
5. Fayziyev M.A. Multimediali elektron qo'llanmalar yaratish tajribasi // Axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalari asosida elektron o'quv adabiyotlarini yaratish: tajriba, muammo, istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy anjumanining ma'ruzalar to'plami. – Toshkent: 2004. – B. 36-37.
6. R.Hamdamov, U.Begimqulov, N.Tayloqov. Ta'limda axborot texnologiyalari” . – T.: “O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. -120 b.